

«TASDIQLANGAN»

“Smart bank” aksiyadorlik jamiyati
Yagona aksiyadori qarori bilan

“Leader Finance” MCHJ
Bosh direktori v.b.

J. Xaydarov

2024 yil “11” dekabr 12/3 -son



AKSIYALAR EMISSIYASI RISOLASI
“SMART BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATI

Identifikatsiya raqami berildi:	R	U	1	0	5	P	0	9	6	7	R	0
---------------------------------	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Egasining nomi yozilgan oddiy, hujjatsiz shaklda, nominal qiymati 1 000 (Bir ming) soʻmdan 150 000 000 (Bir yuz ellik million) dona boʻlgan umumiy qiymati 150 000 000 000 (Bir yuz ellik milliard) soʻmlik aksiyalar.

Boshqaruv raisi:

Bosh hisobchi v.v.b.:



A. Toʻrayev

E. Umirkulov

2024 yil “11” dekabr

ROʻYXATDAN OʻTKAZUVCHI ORGAN USHBU QIMMATLI QOGʻOZLAR EMISSIYASI RISOLASIDAGI AXBOROTNING TOʻGʻRILIGI UCHUN JAVOBGAR BOʻLMAYDI VA QIMMATLI QOGʻOZLAR CHIQARILISHI TOʻGʻRISIDAGI QARORNI ROʻYXATDAN OʻTKAZISH FAKTI BILAN JOYLASHTIRILAYOTGAN QIMMATLI QOGʻOZLARGA NISBATAN OʻZ MUNOSABATINI BILDIRMAYDI.

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING «QIMMATLI QOGʻOZLAR BOZORI TOʻGʻRISIDA»GI QONUNI 61-MODDASIGA MUVOFIQ, QIMMATLI QOGʻOZLARNI INVESTITSIYA OBYEKTI SIFATIDA TANLASH VA SHUNGA MUVOFIQ USHBU TANLOVNING OQIBATLARI INVESTORNING TAVAKKALCHILIKLARIDIR.

JAMIYAT RISOLADA KELITIRILGAN BARCHA MAʼLUMOTLAR ISHONCHLILIGI, INVESTORLARNI JAMIYAT VA U JOYLASHTIRADIGAN QIMMATLI QOGʻOZLAR MASALASIDA CHALGʻITMASLIGINI TASDIQLAYDI.

1-bob. Jamiyat to'g'risida ma'lumot

1. Jamiyat nomi:

Davlat tilida:

To'liq nomi: «Smart bank» aksiyadorlik jamiyati;

Qisqa nomi: «Smart bank» AJ

Rus tilida:

To'liq nomi: Акционерное общество «Smart bank»;

Qisqa nomi: АО «Smart bank»;

Ingliz tilida:

To'liq nomi: «Smart bank» Joint Stock Company

Qisqa nomi: «Smart bank» JSC

2. Jamiyatning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

a) birlamchi davlat ro'yxatidan o'tgan sanasi va raqami:

24.12.2022 y. 89-son O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki;

b) davlat ro'yxatidan qayta o'tish sanasi va raqami (qayta ro'yxatdan o'tish amalga oshirilgan bo'lsa):

06.02.2024 y. 89-son O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki;

d) nomi o'zgargan bo'lsa, avvalgi barcha qisqargan va to'liq nomlari, shuningdek, o'zgartirilgan sanalar ko'rsatiladi:

o'zgarmagan;

e) agar jamiyat yuridik shaxs (shaxslar)ni qayta tashkil etish natijasida tashkil topgan bo'lsa, qayta tashkil etilgan shaxslar va (yoki) jamiyatlarning vorisi ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

jamiyat yuridik shaxs (shaxslar)ni qayta tashkil etish natijasida tashkil etilmagan.

3. Jamiyatning joylashgan joyi, telefon va faks raqamlari, rasmiy veb-sayt va elektron pochta ma'lumotlari:

Jamiyatning joylashgan yeri (pochta manzili): 100011, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko'chasi, 2a-uy.

Elektron pochta manzili: office@smartbank.uz.

Veb manzil: www.smartbank.uz.

Telefon: 1377.

4. Jamiyatning bank rekvizitlari:

Bank nomi: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki;

MFO: 00014;

Xisob raqami: 10301000900001199001.

5. Jamiyatning soliq organi nomi va STIR:

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi.

STIR: 310123822.

6. Davlat statistika organi tomonidan berilgan kodlar:

Tashkiliy-huquqiy shakli: 153;

IFUT kodi (Amalga oshirilayotgan faoliyat tur(lar)i): 64190;

DBIBT kodi: 05193;

MHOBT kodi: 1726277.

7. Reytinglar mavjudligi haqidagi ma'lumotlar:

Jamiyatga reytinglar berilmagan va jamiyat tomonidan reytinglar olinmagan.

8. Jamiyat filiallari hamda vakilliklari to'g'risida ma'lumot:

Jamiyatning filiallari va vakilliklari mavjud emas.

9. SHo'ba va (yoki) tobe yuridik shaxslar to'g'risida ma'lumot (mavjud bo'lgan taqdirda):

Jamiyat sho'ba va (yoki) tobe yuridik shaxslarga ega emas.


10. Jamiyatning O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida joylashgan sanoat, bank, moliyaviy guruhlar, xoldinglar, konsernlar, uyushmalar, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilariga tegishliligi, tovar, valyuta, fond, boshqa birjalardagi a'zoliqi, ularning to'la nomlari va manzillari ko'rsatilgan holda:

Jamiyatning O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida joylashgan sanoat, bank, moliyaviy guruhlar, xoldinglar, konsernlar, uyushmalar, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilariga tegishliligi, tovar, valyuta, fond, boshqa birjalardagi a'zoliklari mavjud emas.

11. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi:

"Smart bank" aksiyadorlik jamiyati
Yagona aksiyadorining
2024 yil "28" iyundagi
06/1-sonli qaroriga
4-ilova

"Smart bank" aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy tuzilmasi



12. Ishchilarning oxirgi 2 yil uchun o'rtacha yillik soni (odamlar):

Jamiyatning asosiy faoliyati bo'yicha band bo'lgan xodimlar:

2023 yilda – 12 ta;

2024 yil 9 oyida – 71 ta;

ma'muriy-boshqaruv xodimlari:

2023 yilda – 3 ta;

2024 yil 9 oyida – 5 ta.

13. Jamiyat ustav kapitalining 5 va undan ortiq foiziga ega bo'lgan tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlar (ushbu ilovaning 9-bandida ko'rsatilgan yuridik shaxslar bundan mustasno):

Jamiyat boshqa tashkilotlar ustav kapitalining 5 va undan ortiq foiziga ega emas.

14. Korporativ boshqaruv kodeksining jamiyat tomonidan qabul qilingan sanasi (agar Nizomda uni qabul qilish ko'zda tutilgan bo'lsa):

Jamiyat Yagona aksiyadorining 2023 yil 6 fevraldagi 02/1-sonli qarori bilan jamiyat tomonidan Korporativ boshqaruv kodeksi qabul qilingan.

15. Jamiyat qimmatli qog'ozlarini xarid qilish haqida qaror qabul qilish uchun oshkor qilinishi muhim deb bilgan boshqa ma'lumotlar:

Jamiyat qimmatli qog'ozlarini xarid qilish uchun oshkor qilinishi muhim deb bilgan boshqa ma'lumotlar mavjud emas.

2-bob. Kelgusi qimmatli qog'ozlar chiqarilishini muomalaga kiritish shartlari

16. Kelgusi aksiyalar chiqarilishi shartlari:

a) chiqarilishdagi aksiyalar turi: egasining nomi yozilgan oddiy, hujjatsiz shaklda;

b) chiqarilishdagi aksiyalar miqdori: 150 000 000 (Bir yuz ellik million) dona;

d) chiqarilishdagi aksiyaning nominal qiymati, so'mda: 1 000 (Bir ming) so'm;

e) chiqarilishning umumiy hajmi, so'mda: 150 000 000 000 (Bir yuz ellik milliard) so'm;

f) aksiyalarni joylashtirish muddati va tartibi: Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 30 kun ichida joylashtiriladi.

Joylashtirishni boshlanish sanasi: mazkur aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi xabar qonunchilikda belgilangan tartibda e'lon qilingan sanadan keyingi o'n beshinchi kun. Agar aksiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi dam olish kuniga to'g'ri kelsa, bu holda aksiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi.

Joylashtirishni tugash sanasi: ushbu chiqarilishning oxirgi aksiyasi joylashtirilgan kuni hisoblanib, ushbu sana aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 30 kundan oshmasligi lozim.

g) to'lov usuli va joylashtiriladigan aksiyalar narxi (qiymati): Aksiyalar uchun to'lov milliy valyutada pul mablag'lari bilan birja qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar 1 000 (Bir ming) so'mdan joylashtiriladi;

h) aksiyalarni to'lash shartlari va tartibi: Aksiyalar uchun to'lov milliy valyutada pul mablag'lari bilan birja qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

i) ushbu chiqarilishning aksiyalarini sotib olishga bo'lgan cheklovlar: ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni sotib olinishiga cheklovlar ko'zda tutilmagan;

j) investor tomonidan sotib olingan aksiyalar bo'yicha olinadigan daromadni soliqqa tortish to'g'risidagi ma'lumot: investor tomonidan sotib olingan jamiyat aksiyalariga

hisoblangan dividend daromadlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq Kodeksiga muvofiq hisoblab, soliq to'lovini chegirgan holda to'lovlar amalga oshiradi.

Aksiya egasiga daromad solig'i to'lash bo'yicha imtiyozlar (daromad solig'ini to'lashdan ozod etish kiritilgan holda) qo'llanilgan taqdirda, bunday aksiya egasi jamiyatni oldindan soliq imtiyozi mavjudligi yuzasidan xabardor etishi shart.

Ushbu xabarnomada investor majburiy tartibda quyidagi axborotlarni bayon etishi lozim:

- Soliq imtiyozini qo'llash uchun asos bo'lib hisoblangan meyoriy hujjat nomi (ushbu meyoriy hujjatning nusxasini xatga ilova qilingan holda);

- Aksiya egasiga bunday imtiyoz qo'llanilishi uchun asos.

Investor mazkur imtiyozni qo'llash bo'yicha xabarnomani aksiya bo'yicha dividend to'lovidan kamida 5 kun avval jamiyatga taqdim etilishi shart.

k) aksiyalarni chiqarishdan maqsad: amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq banklarning minimal ustav kapitali miqdori 2025 yil 1 yanvardan 500 milliard so'mga yetkazish belgilanganligi sababli jamiyatning ustav kapitali miqdorini ushbu qonunchilik talablariga muvofiqlashtirish. Shuningdek, jamiyatning resurs bazasini shakllantirish orqali aktiv operatsiyalar hajmini oshirish orqali jamiyat daromadlilikini ko'paytirish.

l) aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar to'lovi sifatida jamiyat olgan mablag'larni qaytarish tartibi: aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan va haqiqiy emas deb topilgan taqdirda aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan/haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ma'lumot belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarida, shuningdek korporativ ma'lumotlarning yagona portali hamda jamiyatning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan va haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, ushbu chiqarilishdagi aksiyalar to'lovi uchun olingan mablag'lar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshmagan/haqiqiy emas deb topilgan kundan boshlab, 5 kun ichida qaytariladi.

m) avvalgi aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar: jamiyat tashkil etilganidan buyon jami uchta aksiya chiqarilishi amalga oshirilgan. Bular:

1. Birlamchi aksiyalar chiqarilishi:

davlat ro'yxatidan o'tish sanasi, raqami va identifikatsiya raqam: 2023 yil 19 yanvar, P0967-son, RU101P0967R9

joylashtirishni boshlash sanasi: 2023 yil 19 yanvar;

joylashtirishni yakunlash sanasi: 2023 yil 7 iyun;

muomalaga chiqish sanasi: 2023 yil 8 iyun;

aksiyalarning nominal qiymati, so'mda: 1000 (Bir ming) so'm;

aksiyalar chiqarilishinig umumiy xajmi, so'mda: 100 000 000 000 (Bir yuz milliard) so'm;

chiqarilgan aksiyalarning umumiy soni, dona: 100 000 000 (Bir yuz million) dona;

chiqarilgan aksiyalarning turi va ularning turlari bo'yicha miqdori (oddiy aksiyalar, dona, imtiyozli aksiyalar, dona): oddiy aksiyalar - 100 000 000 (Bir yuz million) dona, imtiyozli aksiyalar - 0 dona;

umumiy chiqarilish ichidan joylashtiriladigan aksiyalar foizi, to'liq joylashtirmaslik sababi (to'liq joylashtirilmagan taqdirda): aksiyalar to'liq joylashtirilgan;

aksiyalarni chiqarishdan maqsad: ustav kapitalni shakllantirish.

2. Qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi:

davlat ro'yxatidan o'tish sanasi, raqami va identifikatsiya raqam: 2023 yil 18 avgust, P0967-2-son, RU102P0967R7

joylashtirishni boshlash sanasi: 2023 yil 18 avgust;

joylashtirishni yakunlash sanasi: 2023 yil 25 avgust;

muomalaga chiqish sanasi: 2023 yil 26 avgust;

aksiyalarning nominal qiymati, so'mda: 1000 (Bir ming) so'm;

aksiyalar chiqarilishinig umumiy xajmi, soʻmda: 100 000 000 000 (Bir yuz milliard) soʻm;
chiqarilgan aksiyalarning umumiy soni, dona: 100 000 000 (Bir yuz million) dona;
chiqarilgan aksiyalarning turi va ularning turlari boʻyicha miqdori (oddiy aksiyalar, dona, imtiyozli aksiyalar, dona): oddiy aksiyalar - 100 000 000 (Bir yuz million) dona, imtiyozli aksiyalar – 0 dona;

umumiy chiqarilish ichidan joylashtiriladigan aksiyalar foizi, toʻliq joylashtirmaslik sababi (toʻliq joylashtirilmagan taqdirda): aksiyalar toʻliq joylashtirilgan;

aksiyalarni chiqarishdan maqsad: ustav kapitalni oshirish.

3. Qoʻshimcha aksiyalar chiqarilishi:

davlat roʻyxatidan oʻtish sanasi, raqami va identifikatsiya raqam: 2024 yil 14 mart, P0967-3-son, RU103P0967R5

joylashtirishni boshlash sanasi: 2024 yil 14 mart;

joylashtirishni yakunlash sanasi: 2024 yil 29 mart;

muomalaga chiqish sanasi: 2024 yil 30 mart;

aksiyalarning nominal qiymati, soʻmda: 1000 (Bir ming) soʻm;

aksiyalar chiqarilishinig umumiy xajmi, soʻmda: 150 000 000 000 (Bir yuz ellik milliard) soʻm;

chiqarilgan aksiyalarning umumiy soni, dona: 150 000 000 (Bir yuz ellik million) dona;

chiqarilgan aksiyalarning turi va ularning turlari boʻyicha miqdori (oddiy aksiyalar, dona, imtiyozli aksiyalar, dona): oddiy aksiyalar - 150 000 000 (Bir yuz ellik million) dona, imtiyozli aksiyalar – 0 dona;

umumiy chiqarilish ichidan joylashtiriladigan aksiyalar foizi, toʻliq joylashtirmaslik sababi (toʻliq joylashtirilmagan taqdirda): aksiyalar toʻliq joylashtirilgan;

aksiyalarni chiqarishdan maqsad: ustav kapitalni oshirish.

4. Qoʻshimcha aksiyalar chiqarilishi:

davlat roʻyxatidan oʻtish sanasi, raqami va identifikatsiya raqam: 2024 yil 31 oktabr, P0967-4-son, RU103P0967R5

joylashtirishni boshlash sanasi: 2024 yil 31 oktabr;

joylashtirishni yakunlash sanasi: 2024 yil 6 dekabr;

muomalaga chiqish sanasi: 2024 yil 10 dekabr (chiqarish amalga oshmaganligi sababli muomalaga chiqarilmagan);

aksiyalarning nominal qiymati, soʻmda: 1000 (Bir ming) soʻm;

aksiyalar chiqarilishinig umumiy xajmi, soʻmda: 150 000 000 000 (Bir yuz ellik milliard) soʻm;

chiqarilgan aksiyalarning umumiy soni, dona: 150 000 000 (Bir yuz ellik million) dona;

chiqarilgan aksiyalarning turi va ularning turlari boʻyicha miqdori (oddiy aksiyalar, dona, imtiyozli aksiyalar, dona): oddiy aksiyalar - 150 000 000 (Bir yuz ellik million) dona, imtiyozli aksiyalar – 0 dona;

umumiy chiqarilish ichidan joylashtiriladigan aksiyalar foizi, toʻliq joylashtirmaslik sababi (toʻliq joylashtirilmagan taqdirda): qoʻshimcha aksiyalar chiqarish toʻgʻrisidagi qarorda belgilangan muddat ichida joylashtirilmaganligi (umuman joylashtirilmagan, 0 dona yoki 0 foiz) sababli chiqarish amalga oshmagan deb topilgan;

aksiyalarni chiqarishdan maqsad: ustav kapitalni oshirish.

n) soʻnggi 2 yil uchun hisoblangan va toʻlangan dividendlar toʻgʻrisida maʼlumot:
Jamiyat tomonidan:

2022 moliyaviy yil uchun dividendlar hisoblanmagan va toʻlanmagan;

2023 moliyaviy yil uchun bir dona aksiya uchun 0,4 foiz yoki 4 (Toʻrt) soʻmdan dividendlar hisoblangan va toʻlangan.

o) mavjud aksiyalarni birlashtirish yoki taqsimlash sanasi va sabablari to'g'risidagi ma'lumotlar: jamiyatda bu kabi holatlar yuz bermagan;

p) oxirgi yil uchun aksiyalar narxlarining taqsimlanishi, birja yoki birjadan tashqarida savdolarida rasmiy ro'yxatdan o'tkazilgan yuqori va pastki narxlar ko'rsatilgan holda: jamiyat aksiyalari bo'yicha bitimlar 1 000 (Bir ming) so'm narx asosida tuzilgan.

q) aksiyalar realizatsiya qilinadigan joylar (qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining nomi va uning ma'lumotlari):

Nomi: "Toshkent" Respublika fond birjasi aksiyadorlik jamiyati

Manzili va aloqa ma'lumotlari: 100170, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mustaqillik shox ko'chasi, 107-uy, +998 55 500-99-95, info@uzse.uz, www.uzse.zu.

Litsenziya ma'lumotlari: 2019 yil 8 oktabrdagi 1371-sonli, O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan berilgan.

3-bob. Emissiya to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlar

18. Ushbu qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilgan jamiyat organi va qaror qabul qilingan sana: "Smart bank" AJ Yagona aksiyadorining 2024 yil 11 dekabrda 12/3-sonli qarori.

19. Ushbu chiqarilish bo'yicha jamiyat tomonidan jalb qilingan qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari haqida ma'lumot: Ushbu chiqarilish bo'yicha jamiyat tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari jalb qilinmagan.

20. Mustaqil auditor to'g'risidagi axborot.

So'ngi tugallangan 2023 moliya yilida jamiyat moliya hisoboti auditini amalga oshirgan auditorlik tashkiloti:

Auditorning familiyasi, ismi, otasining ismi: Suxrob Azimov

Litsenziyaning rakami va berilgan sanasi: 25.08.2023 yil, 28-sonli.

Auditorlik tashkilotining nomi: «PricewaterhouseCoopers» MCHJ Auditorlik tashkiloti.

Joylashgan manzili va aloqa ma'lumotlari: 100000, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik-88A.

20¹. Obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag'larni Milliy yashil taksonomiya va/yoki boshqa ekvivalent taksonomiyalar talablariga muvofiq ishlatish maqsadi to'g'risida ma'lumot (yashil korporativ obligatsiyalar uchun): yashil korporativ obligatsiyalarning chiqarilishi ko'zda tutilmagan.

20². Milliy yashil taksonomiya va/yoki boshqa ekvivalent taksonomiyalar talablari doirasida erishiladigan rejalashtirilgan natijalar (KPI) to'g'risida ma'lumot (yashil korporativ obligatsiyalar uchun): yashil korporativ obligatsiyalarning chiqarilishi ko'zda tutilmagan.

20³. Yashil standartlarga muvofiqlik sertifikatining mavjudligi, shuningdek, bunday sertifikatni bergan tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar (yashil korporativ obligatsiyalar uchun): yashil korporativ obligatsiyalarning chiqarilishi ko'zda tutilmagan.

21. Mazkur chiqarilish bilan bog'liq tegishli xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzilgan yuridik va moliya masalalari bo'yicha maslahatchilarning to'liq nomi: mazkur chiqarilish bilan bog'liq tegishli xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha yuridik va moliya masalalari bo'yicha maslahatchilar jalb qilinmagan.

22. Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi tashkilotlar to'g'risida ma'lumot:

Mazkur chiqarilish doirasida chiqarilgan aksiyalarga bo'lgan huquqlarining hisobi

O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va Investitsiya vositachilari tomonidan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda yuritiladi.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi to'g'risida ma'lumotlar:

- To'liq nomi: "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyati;
- Tashkiliy huquqiy shakli: aksiyadorlik jamiyati;
- Joylashgan yeri va pochta manzili: 100170, Toshkent shahri, M.Ulugbek tumani,

Mustaqillik shox ko'chasi 107 uy.

- Aloqa telefonlar: +998 71 267-37-42, +998 71 267-35-92

- Faks: +998 71 267-37-42

- Elektron pochta: info@uzcsd.uz.

Mazkur chiqarilish doirasida chiqarilgan aksiyalarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi investitsiya vositachisi sifatida "Leader Finance Capital" mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan xizmat ko'rsatish shartnomasi tuzilgan.

Investitsiya vositachisi "Leader Finance Capital" MCHJ to'g'risida ma'lumotlar:

- To'liq nomi: "Leader Finance Capital" mas'uliyati cheklangan jamiyati.
- Tashkiliy huquqiy shakli: mas'uliyati cheklangan jamiyati.
- Joylashgan yeri va pochta manzili: 100115, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

3-mavze, 74-uy.

- Aloqa telefoni: (998 99) 444-53-53.

- Elektron pochta: info@leaderfinance.uz

- Professional faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziyaning raqami, berilgan sanasi va amal qilish muddati, ko'rsatilgan litsenziyani bergan organ: 2023 yil 25 yanvardagi 060102-sonli, amal qilish muddati cheklanmagan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

- Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma sanasi va raqami: 2023 yil 19 apreldagi 81/23-E-sonli.

23. Ro'yxatga olingan obligatsiyalar chiqarilishlari to'g'risidagi ma'lumotlar: jamiyat tomonidan obligatsiyalar chiqarilmagan.

4-bob. Jamiyatning boshqaruv va ijro organlari to'g'risidagi ma'lumot

24. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar:

Kuzatuv kengashi a'zosining F.I.SH.	Hozirgi vaqtda va oxirgi 3 yildagi egallagan lavozimlari	saylangan sana	Emitentning ustav fondidagi ulushi	
			soni donal arda	Ulush % da
1	2		3	4
Kuzatuv kengashi raisi				
Xaydarov Jahongir Xoliqulovich	03.2021 yildan – h.v.q. - "Agrobank" ATB Boshqaruv raisi o'rinbosari, "Leader Finance" MCHJ Bosh direktori v.b.	06.02.2023 yil	yo'q	yo'q
Kuzatuv kengashi a'zolari				
Musurmanov Erkin Sherkuziyevich	07.2020 – 07.2023 yillar - "Agrobank" ATB G'aznachilik departamenti direktori; 07.2023 yildan – h.v.q. - "Agro finance lizing" AJ Boshqaruv raisi o'rinbosari	06.02.2023 yil	yo'q	yo'q
Oziyev Gapur	11.2008 – 12.2023 yillar - Malayziya xalqaro	06.02.2023	yo'q	yo'q

Bashirovich, mustaqil a'zo	islom universiteti, iqtisodiyot kafedrası dotsenti; 01.2023 yildan – h.v.q. - Gruzıya Respublikasidagi Bilimlar integratsiyasi institui (IKIACADEMY) direktori	yil		
Yusufi Baxtovar, mustaqil a'zo	10.2020 – 06.2024 yillar - Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida "Agrobank" ATBda tashkil etiladigan raqamli bankda "OracleFlexCube"ni joriy qilish bo'yicha loyiha menejeri; 06.2024 yildan – h.v.q. - IT loyihalari bo'yicha frilanser	06.02.2023 yil	yo'q	yo'q
Yusupov Nuriddin Rixsiboyevich, mustaqil a'zo	08.2019 – 06.2024 yillar - Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida "Agrobank" ATB Loyihalarni boshqarish guruhining "Raqamli bank" loyihasi bo'yicha loyiha menejeri; 06.2024 yildan – h.v.q. - IT loyihalari bo'yicha frilanser	06.02.2023 yil	yo'q	yo'q

25. Jamiyat kuzatuv kengashi qo'mitalari to'g'risidagi axborot: jamiyatning Kuzatuv kengashi qoshida quyidagi qo'mitalar mavjud:

1. Qo'mita nomi: Audit qo'mitasi.

Qo'mita vazifa va funksiyalari: ichki audit xizmatining mustaqilligi va xolisligini ta'minlash, tashqi auditorning hisobotlari va xulosalarini ko'rib chiqish va tegishli ko'rsatmalar berish, nazorat hisobotlarining taqdim etilishini, to'liqligini, ishonchliligini, moliyaviy va boshqa hisobotlarni nazorat qilish, ichki nazorat tizimi va ichki audit faoliyatini, ularning samaradorligi va muvofiqligini ta'minlash uchun baholash, ichki audit xizmati bilan bog'liq masalalarni har chorakda muhokama qilish, tashqi auditorning takliflarini baholash va tanlash bo'yicha tavsiyalar berish, ichki va tashqi audit tomonidan aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish ustidan nazorat qilish.

Qo'mita raisi va a'zolari: Musurmanov Erkin Sherkuziyevich, Yusufi Baxtovar, Yusupov Nuriddin Rixsiboyevich.

2. Qo'mita nomi: Tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasi.

Qo'mita vazifa va funksiyalari: tavakkalchiliklarni boshqarish masalalari bo'yicha ichki meyoriy hujjatlarni ko'rib chiqish va ular bo'yicha tavsiyalar berish, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash, xavf holati to'g'risidagi hisobotlarni, shu jumladan stress testlari natijalarini ko'rib chiqish, tavakkalchiliklarni baholash usullarini davriy qayta ko'rib chiqish, tavakkalchilik normalari va limitlari tizimini tasdiqlash, qayta ko'rib chiqish va bekor qilish, vujudga kelgan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar to'g'risidagi hisobotlarni tahlil qilish va xavflarni kamaytirish bo'yicha ishlarni bajarish, tavakkalchiliklarni boshqarish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma faoliyati bilan bog'liq masalalarni har chorakda muhokama qilish.

Qo'mita raisi va a'zolari: Oziyev Gapur Bashirovich, Musurmanov Erkin Sherkuziyevich, Yusupov Nuriddin Rixsiboyevich.

3. Qo'mita nomi: Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi.

Qo'mita vazifa va funksiyalari: sodir bo'lgan va/yoki noto'g'ri xatti-harakatlar haqida maxfiylik va xavfsizlikni ta'minlaydigan ogohlantirish tizimini yaratish, noto'g'ri xatti-harakatlar to'g'risida xabarlarini qabul qilish va xabar bo'yicha izchil va o'z vaqtida harakatlarni ta'minlash, noto'g'ri xatti-harakatlarni aniqlash va ular bo'yicha tavsiyalar berish bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqish, noto'g'ri xatti-harakatlar to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqish va kelajakda bunday salbiy holatlarning oldini olish bo'yicha ishlarni amalga oshirish, nazorat va huquqni muhofaza qilish organlari, tashqi auditorlar, reyting agentliklari, noo'rin xatti-

harakatlarni aniqlash sohasidagi ichki audit xizmati tavsiyalarini tahlil qilish, ushbu tavsiyalarning bajarilishini nazorat qilish, noto'g'ri xatti-harakatlarni aniqlash uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma faoliyati bilan bog'liq masalalarni har chorakda muhokama qilish.

Qo'mita raisi va a'zolari: Yusupov Nuriddin Rixsiboyevich, Musurmanov Erkin Sherkuziyevich, Yusufi Baxtovar.

4. Qo'mita nomi: Tayinlov va haq to'lash qo'mitasi.

Qo'mita vazifa va funksiyalari: bankda kadrlar siyosatini shakllantirish, kadrlar siyosatini, mehnatga haq to'lash bo'yicha ichki normativ hujjatni ishlab chiqishni ta'minlash, bankdagi boshqaruv va asosiy lavozimlarga nomzodlarni tanlash va baholashni tashkil etish, boshqaruv va bankning asosiy xodimlari samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqish, shaffof kadrlar siyosati va ish haqi tizimini yaratish, kadrlar siyosati va mehnatga haq to'lash masalalari bo'yicha mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma faoliyati bilan bog'liq masalalarni har yili muhokama qilish.

Qo'mita raisi va a'zolari: Xaydarov Jahongir Xoliqulovich, Oziyev Gapur Bashirovich, Yusupov Nuriddin Rixsiboyevich.

5. Qo'mita nomi: IT qo'mitasi.

Qo'mita vazifa va funksiyalari: axborot texnologiyalarini rivojlantirishning umumiy strategiyasini belgilash, bank mahsulotlarini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilishning samarali tizimini yo'lga qo'yish, bank mahsulotlarini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan shug'ullanuvchi tarkibiy tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish, bank mahsulotlarini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning sifatini monitoring qilish va bajarilishini nazorat qilish, bank mahsulotlarini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilishda axborot xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlovchi tizimni yo'lga qo'yish, bank mahsulotlarini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish yuzasidan axborot texnologiyalari tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash.

Qo'mita raisi va a'zolari: Yusufi Baxtovar, Yusupov Nuriddin Rixsiboyevich, Oziyev Gapur Bashirovich.

26. Jamiyatning kollegial (yakka) ijroiya organi to'g'risida ma'lumotlar:

Ijroiya organi a'zosining F.I.SH.	Hozirgi vaqtda va oxirgi 3 yildagi egallagan lavozimlari	saylangan sana	Emitentning ustav fondidagi ulushi	
			soni donalar da	Ulush % da
1	2	3	4	5
Boshqaruv raisi				
To'rayev Azamat Shuxratovich	11.2020 – 02.2023 yillar - "Agrobank" ATB Boshqaruv raisi o'rinbosari; 02.2023 yildan – h.v.q. - "Smart bank" AJ Boshqaruv raisi	06.02.2023 yil	yo'q	yo'q
Boshqaruv a'zolari				
Egamov Ilxom Baxtiyarovich	08.2021 – 06.2022 yillar - "Agrobank" ATB Agrar faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i; 06.2022 – 02.2023 yillar - "Agrobank" ATB Bank statistikasi boshqarmasi boshlig'i; 02.2023 – 07.2023 yillar - "Smart Bank" AJ	06.02.2023 yil.	yo'q	yo'q

	Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.; 07.2023 yildan – h.v.q. - "Smart Bank" AJ Boshqaruv raisi o'rinbosari			
Utamurotov Odil Toshpulotovich	04.2019 – 02.2023 yillar - "Agrobank" ATB Likvidlikni rejalashtirish va nazorat qilish hamda narx siyosati bo'limi boshlig'i; 02.2023 yildan – h.v.q. - "Smart Bank" AJ Bosh buxgalteri	06.02.2023 yil.	yo'q	yo'q
G'ulomjonova Mushtariy G'ulomjon qizi	10.2019 – 02.2023 yillar - "Agrobank" ATB Yuridik departamenti direktori o'rinbosari; 02.2023 yildan – h.v.q. - "Smart Bank" AJ Yuridik boshqarmasi boshlig'i	06.02.2023 yil	yo'q	yo'q
Baymanov Anvar Adxamovich	09.2019 – 08.2022 yillar - "Agrobank" ATB Xovos filiali bosh buxgalteri; 08.2022 – 10.2022 yillar - "Agrobank" ATB Yangiyer filiali bosh buxgalteri; 10.2022 – 02.2023 yillar - "Agrobank" ATB Loyixalarni boshqarish guruhi mutaxasisi; 02.2023 yildan – h.v.q. - "Smart bank" AJ Komplayens va ichki nazorat boshqarmasi boshlig'i	23.02.2024 yil	yo'q	yo'q

27. Jamiyat ijroiya organining vazifasi topshirilgan tashkilot to'g'risidagi ma'lumot: jamiyat ijroiya organining vazifasi boshqa tashkilotga topshirilmagan.

28. Mukofot hamda ish haqining umumiy miqdori, shuningdek, so'nggi 2 yil uchun mazkur Risolaning 24, 26 va 27-bandlarida ko'rsatilgan jamiyatning shaxslariga berilgan va to'langan imtiyozlar:

- 2023 yilda mukofot hamda ish haqining umumiy miqdori 5,3 milliard so'mni tashkil etib, buning Kuzatuv kengash a'zolariga jami to'langan ish haqqi miqdori 0 so'mni, kollegial ijroiya organiga jami to'langan ish haqqi miqdori 1,3 milliard so'mni tashkil etadi;

- 2024 yilning to'qqiz oyida mukofot hamda ish haqining umumiy miqdori 14,6 milliard so'mni tashkil etib, buning Kuzatuv kengash a'zolariga jami to'langan ish haqqi miqdori 0,2 milliard so'mni, kollegial ijroiya organiga jami to'langan ish haqqi miqdori 1,3 milliard so'mni tashkil etadi.

29. Jamiyatning 5 va undan ortiq foiz aksiyalari (ulushi)ga ega bo'lgan aksiyadorlari (ishtirokchilari):

№	Jismoniy shaxsning F.I.SH yoki yuridik shaxsning to'liq nomi	Soliq to'lovchining individual raqami	Joylashgan yeri (yashash joyi) (davlat, viloyat, shahar, tuman)	Aksiyadorning emitent ustav fondidagi ulushi (% da)	Asos sodir etilgan sana
1	"Leader Finance" mas'uliyati cheklangan jamiyati	202562308	Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 3-daha, 74-uy	100 %	24.12.2022 yil

30. Jamiyatning boshqa affillangan shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlar.

№	Jismoniy shaxsning F.I.SH yoki yuridik shaxsning to'liq nomi	Ular affillangan shaxs deb e'tirof etilish asosi	Asos sodir etilgan sana
1	Xaydarov Jaxongir Xolikulovich	Kuzatuv kengashi a'zosi	06.02.2023 yil
2	Musurmanov Erkin Sherkuziyevich	Kuzatuv kengashi a'zosi	06.02.2023 yil
3	Oziyev Gapur Bashirovich	Kuzatuv kengashi a'zosi	06.02.2023 yil
4	Yusufi Baxtovar	Kuzatuv kengashi a'zosi	06.02.2023 yil
5	Yusupov Nuriddin Rixsibayevich	Kuzatuv kengashi a'zosi	06.02.2023 yil
6	To'rayev Azamat Shuxratovich	Jamiyat boshqaruv raisi	06.02.2023 yil
7	Egamov Ilxom Baxtiyarovich	Jamiyat boshqaruv a'zosi	06.02.2023 yil
8	Utamurotov Odil Toshpulotovich	Jamiyat boshqaruv a'zosi	06.02.2023 yil
9	G'ulomjonova Mushtariy G'ulomjon qizi	Jamiyat boshqaruv a'zosi	06.02.2023 yil
10	Baymanov Anvar Adxamovich	Jamiyat boshqaruv a'zosi	23.02.2024 yil

5-bob. Jamiyatining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati ko'rsatkichlari

31. Jamiyat faoliyati turlari:

a) asosiy faoliyat turi va ishlab chiqariladigan mahsulotlar (xizmatlar) turlari:

Jamiyat amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi moliyaviy operatsiyalarga oid xizmatlarni amalga oshiradi:

pul mablag'larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;

to'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;

kreditlarni ularning qaytarilishi, foizlilik va muddatliligi sharti bilan o'z nomidan o'zining mablag'lari hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish;

chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;

jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha mol-mulkni ishonchli boshqarish;

inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko'rsatish;

uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;

uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish (faktoring);

qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas'ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo'lmagan) hisobvaraqlarini yuritish;

qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;
hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;
hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi
seyflarni ijaraga berish;

lizing berish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;

moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq maslahat xizmatlari ko'rsatish;

aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;

elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to'lash;

bank kartalarini berish va to'lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar,
jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko'rsatish;

shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuniga
muvofig boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi hamda bank xizmatlarini ko'rsatadi.

b) jamiyatning litsenziyalari (patentlari) to'g'risidagi ma'lumotlar: jamiyat
tomonidan moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
tomonidan 2022 yil 24 dekabrda berilgan 89-sonli hamda 2024 yil 6 fevralda berilgan 89-sonli
litsenziyalarga ega.

32. Jamiyatning bozordagi ulushi to'g'risidagi ma'lumot: jamiyatning bozordagi
ulushi quyidagicha 0,2 foizni tashkil etadi.

Yillar	Banklarning jami kapitali, (mlrd so'm)	Jamiyat ko'rastikichlari, (mlrd so'm)	Bozor ulushi, %
2023	97 079	200	0,2
2024 yil 9 oy	109 170	350	0,3

**33. Sohaning kelajakdagi taraqqiyoti borasidagi prognozlar va ushbu sohadagi
jamiyatning o'rni:** Respublikamiz bozor konyukturasidagi kutilayotgan o'zgarishlar va
jamiyatning joriy kuchli va kuchsiz taraflaridan kelib chiqqan holda jamiyat missiyasini optimal
qilishni rejalashtirgan:

bank xizmatlari jozibadorligini oshirish va egiluvchan tarif siyosatini maqbullashtirish;

xizmat ko'rsatish jarayonlarini standartlashtirish va yanada optimallashtirish;

marketing xizmati rolini kuchaytirish;

motivatsiyaga va yangi g'oyalarga ega xodimlar iborat jamoani shakllantirish;

tavakkalchilikni boshqarish va baholashni xalqaro andozalarga moslashtirish.

Jamiyat o'z xizmatlarini asosan mijozlariga xizmat ko'rsatish markazi (va/yoki koll
markaz) orqali amalga oshiradi.

Mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi front ofisning barcha vazifalarini kunu-tun hal qiladi.

Mijozlarga xizmat ko'rsatish 24/7 (kunu-tun) rejimida, internet banking, mobil banking,
telefon aloqasi va sms, chat-botlar, messendjerlar, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy
sayti kanallari orqali amalga oshiriladi.

Biznes-rejaga jamiyat bank faoliyatining istiqbol ko'rsatkichlari va uch yillik faoliyati
yakunida:

sof foydaning yillik o'sishi kamida o'rtacha 30 foizga yetadi;

ROE va ROA ko'rsatkichi esa 5-10 foizga yetkaziladi;

mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha yuqori o'rinlarga chiqiladi;

majburiyatlarning jami passivlardagi ulushi 50 foiz atrofida saqlab qolinadi;

tavakkalchiliklarni boshqarishning zamonaviy tizimi shakllantiriladi;

xizmat turlari va ularning sifati xalqaro amaliyot bilan solishtirish mumkin bo'lgan
darajalarga olib chiqiladi;

motivatsiyaga ega, innovatsion fikrlaydigan Bank jamoasi shakllantiriladi.

34. So‘nggi 2 yil ichida yoki jamiyatning rasmiy faoliyati davrida sotilgan mahsulotlar (bajarilgan ish, xizmatlar) hajmi: jamiyat tomonidan 2023 yilda 14,6 milliard so‘mlik hamda 2024 yil 9 oyida 35,1 milliard so‘mlik jami 49,7 milliard so‘mlik ko‘rsatilgan moliyaviy xizmatlardan daromad olingan.

35. Jamiyatning o‘z mahsulotlari (ishlar, xizmatlar)ni sotishni tashkil etish bo‘yicha faoliyati.

- jamiyat iste‘mol qiladigan tovarlar (ish, xizmat) umumiy hajmining 10 va undan ortiq foiziga to‘g‘ri keladigan yetkazib beruvchilar mavjud emas.

- jamiyat ishlab chiqaradigan tovarlar (ish, xizmat) umumiy hajmining 10 va undan ortiq foizini iste‘mol qiladigan iste‘molchilar mavjud emas.

36. Jamiyat faoliyatiga ta‘sir qiladigan omillar:

a) jamiyat faoliyati asosiy turlari bo‘yicha savdo (ish, xizmat) daromadlilikiga ijobiy va salbiy ta‘sir qiladigan omillar:

- ijobiy omillar: jamiyatni rivojlanishi uchun ta‘sir qiladigan asosiy ijobiy omillardan biri bu yurtimizda oxirgi 5 yil davomida olib borilayotgan islohotlar natijasida vujudga kelgan iqtisodiy va siyosiy barqarorliqdir. jamiyat tomonidan berilgan moliyalashtirishlarning o‘z vaqtida qaytarilishi, jamiyatga qo‘shimcha resurs va investorlar bazasining jalb qilinishi, jamiyatning qarz resurslariga aholi ehtiyojining ortishi va boshqa ijobiy ta‘sirilar.

- salbiy omillar: jamiyat tomonidan moliyalashtirilgan mablag‘lar o‘z vaqtida qaytmasligi ehtimoli, jamiyat resurs bazasi yetishmasligi va aholining qarzga bo‘lgan talabini pasayishi, ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (fors-major holatlari, karantin cheklovlari va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron to‘lov hamda ta‘minot tizimidagi nosozlik, jamiyatning dasturiy ta‘minot tizimiga qilingan tahdid (uchinchi shaxslar tomonidan qilingan hujumlar) sababli yuzaga keladigan vaziyatlar va boshqa salbiy ta‘sirilar.

b) jamiyatning sud jarayonlaridagi ishtiroki to‘g‘risidagi ma‘lumotlar: jamiyat tashkil etilgan kundan buyon hozirgi davrga qadar kreditorlar bilan sud jarayonlarida ishtirok etmagan.

d) vakolatli davlat organlari va (yoki) sud tomonidan so‘nggi 2 yil davomida jamiyatga va uning boshqaruv organi a‘zolariga nisbatan qo‘llangan barcha ma‘muriy jazolar (sanksiyalar, jumladan moliyaviy) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar: jamiyat tashkil etilganidan buyon vakolatli davlat organlari yoki sud tomonidan jamiyatga va uning boshqaruv organi a‘zolariga nisbatan ma‘muriy jazolar (sanksiyalar, jumladan moliyaviy) qo‘llanilmagan.

e) tavakkalchilik omillari:

jamiyat faoliyati bilan bog‘liq xavf-xatarlar:

Jamiyat Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziya asosida faoliyat yuritadi. Mazkur litsenziya cheklanmagan muddatda amalda bo‘ladi, biroq Markaziy bank doimiy ravishda jamiyatning iqtisodiy normativ-ko‘rsatkichlarini nazorat qilib boradi. Agar jamiyat tomonidan ushbu iqtisodiy normativ-ko‘rsatkichlar bajarilmagan taqdirda mazkur litsenziyani chaqirib olishi yoki litsenziyani amal qilish muddati tugatilishi mumkin.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori hamda «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari talablariga rioya etmaslik ham faoliyat yuritish litsenziyasini chaqirib olinishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, jamiyat faoliyatiga Respublikadagi iqtisodiy va siyosiy vaziyat ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Mazkur emissiya risolasi tasdiqlangunga qadar, jamiyatning uchinchi shaxslar, jumladan, jamiyatning sho‘ba tashkilotlari bo‘yicha javobgarligi hamda jamiyat tomonidan berilgan

kreditlari hisobiga olingan daromadning kamida 10 (o'n) foiziga to'g'ri keladigan yo'qotish ehtimollari mavjud emas.

tarmoq xavf-xatarlari:

Jamiyatning asosiy faoliyati mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lib, quyidagilar tarmoq xavf-xatari deb ko'rsatiladi:

- jalb qilingan resurs mablag'lar hisobi kamayishi yoki jalb qilingan resurslarning o'ta qimmatligi;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan jamiyat ustav kapitaliga va beriladigan kredit foiz stavkalariga belgilangan normativlarni oshirilishi;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan mikromoliya tashkilotining aktivlari sifatini tasniflashda zaxira ajratilishida o'rnatilgan meyorlarning ortishi;
- Respublika soliq to'lov tizimida soliq stavkalarining o'zgarishi;
- Jamiyatni o'z tasarrufiga o'tgan mol-mulkni realizatsiya qilish bo'yicha belgilangan qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilishi;
- Respublika moliya bozoriga chetdan uzoq yillar davomida faoliyat yuritayotgan yirik mikromoliya tashkilotlarining kirib kelishi.

Yuqoridagi ta'sirlar jamiyatga ichki va tashqi bozordagi o'zgarishlarga bevosita ta'sir ko'rsatib, jamiyat faoliyatining asosiy tarmoq xavf-xatarlari hisoblanadi.

moliyaviy xavf-xatarlar:

Jamiyat moliyaviy xavf-xatarlari sirasiga jamiyat o'z majburiyatlarini qoplay olmasligi, kreditor va ishtirokchilar oldidagi majburiyatlarining ortishi, moliyaviy barqarorligi to'g'risida omma ichida salbiy tasavvur yuzaga kelishi, mijozlar sonining kamayishi, ko'rsatilayotgan xizmat sifatining tushishi natijasida, jamiyatda zararlar yuzaga kelishidan iborat.

Shuningdek, jamiyat aktivlarining moliya majburiyatlariga nomuvofiqligi, jamiyatning tashqi investorlar va kontragentlardan olingan pul mablag'larining (depozit, kredit, qarz va boshqalar) ortishi oqibatida jamiyat majburiyatlarini to'la bajara olmasligi bilan bog'liq xatarlar.

Jumladan, jamiyat faoliyati yuzasidan moliyaviy xavf-xatarlarga quyidagilar kiradi:

- kredit xavf-xatari – mijozlarga berilgan kreditlarni shartnoma shartlariga muvofiq majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmasligi va/yoki lozim daraja bajarmasligi, mijoz to'lov qobiliyati pasayishi;
- bozor xavf-xatari – moliya bozoridagi narxlarning (belgilangan kredit foizlarining) salbiy tomonga o'zgarishi yoki boshqa kontragentlarning bozordagi ulushining ortishi;
- likvidlik xavf-xatari – jamiyat moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmasligi yoki lozim darajada bajara olmasligi, aktivlar realizatsiya qilish jarayonida jamiyatning likvidlik darajasi pasayishi, mijozlar va investorlar oldidagi to'lov qobiliyatining pasayishi;
- foiz stavkasi xavf-xatari – moliya bozoridagi foiz stavkalarining noqulay o'zgarishi sharoitida jamiyat foizli aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi nomutanosibligi, sof foizli daromad va/yoki kapitalning pasayishi;
- inflyatsiyani va xorijiy valyuta kurslarini o'sishi natijasida aktivlarni qadrsizlanishi;
- kredit portfeli yoki joylashtirilgan aktivlarning diversifikatsiya kilinmasligi.

huquqiy xavf-xatarlar:

Jamiyat tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar va tuzilgan shartnomalarga rioya qilinmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi, ish jarayonida huquqiy xatoliklarga (noto'g'ri yuridik maslahat yoki hujjatlarni noto'g'ri tuzilishi) yo'l qo'yilishi, huquq tizimidagi kamchiliklari yoki qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, hamkorlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning buzilishi natijasida jamiyatda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq xatarlar.

Huquqiy xavf-xatarlarni boshqarish maqsadida jamiyat tomonidan qabul qilingan tavakkalchilikning strategik maqsadlarga muvofiq maqbul darajasini ushlab turishdir. Jamiyatga ma'lum bo'lgan yo'qotishlarni kamaytirish asosida aktivlar va kapitalning yuqori darajada xavfsizligini ta'minlash ustuvor vazifadir.

Jamiyat huquqiy xavf-xatarlarni boshqarishda quyidagilarni amalga oshiradi:

- Huquqiy xavf-xatarlarni maqbul darajasini aniqlash va o'lchash;

- Huquqiy xavf-xatarlarni doimiy monitoringini olib borish;
- Jamiyatning moliyaviy barqarorligiga va uning kreditorlari hamda investorlari manfaatlariga tahdid soladigan yuridik xavfni maqbul darajada ushlab turish choralarini ko'rish;
- Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan jamiyatning meyoriy hujjatlariga va ichki hujjatlariga rioya qilish;
- Jamiyat va xodimlarining noqonuniy ishlarda ishtirok etishi, shu jumladan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish sohalarini nazorat qilish.

operatsion xavf-xatarlar:

jamiyat faoliyatida muhim bo'lgan xavf-xatar hisoblanib, jamiyat xodimlarining qasddan noqonuniy harakatlari, uchinchi shaxslar tomonidan jamiyatga nisbatan qilingan salbiy ta'sirlar, jamiyatning ichki tizimlaridagi texnologik nozoslik, axborot va boshqa tashqi tizimlarga qilingan hujumlar yig'indisi.

Jamiyat faoliyatida quyidagi operatsion xavf-xatarlarni nazorat qiladi:

- Jamiyat manfaatiga qarshi qaratilgan tasodifiy yoki qasddan qilingan harakatlar, shu jumladan jamiyatning qonun talablariga va ichki meyoriy talablariga rioya qilmasligi yuzasidan;
- Jamiyat tashkiliy tuzilmasi nomukamalligi, shuningdek jamiyat bo'limlari va xodimlarining vazifalarini to'g'ri taqsimlanmasligi yuzasidan;
